



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha*
va maktab ta'limi bo'limi
tasarrufidagi

___ *-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yili 11-sinf
o'zbek tili fanidan I chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 11-sinf o‘zbek tili fanidan I chorak uchun taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	O‘zbekiston – suveren davlat. Grammatika: O‘tilganlarni takrorlash. (Loyiha ishi mavzusini baholash va e‘lon qilish)	1		
2.	So‘z birikmasi va gap	1		
3.	Adabiy o‘qish: Alisher Navoiyning hayoti. Ruboiylar	1		
4.	O‘zbekiston ta‘lim tizimi. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.	1		
5.	O‘zbekiston ta‘lim tizimi. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.	1		
6.	Adabiy o‘qish: Alisher Navoiyning ijodi. “Hayrat-ul abror” dostonidan parcha	1		
7.	Nazorat ishi-1	1		
8.	Ajdodlar merosi. Grammatika: Buyruq-istak va his-hayajon gaplar. Ish qog‘ozlari: Ariza.	1		
9.	Ajdodlar merosi. Grammatika: Buyruq-istak va his-hayajon gaplar. Ish qog‘ozlari: Ariza.	1		
10.	Adabiy o‘qish.Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi, ruboiylari.	1		
11.	Xalqimizning asl farzandlari. Gramatika: Gap va matn. Matn qismlarini bog‘lovchi vositalar. Ish qog‘ozlari: Tarjimai hol.	1		
12.	Xalqimizning asl farzandlari. Gramatika: Gap va matn. Matn qismlarini bog‘lovchi vositalar. Ish qog‘ozlari: Tarjimai hol.	1		
13.	Adabiy o‘qish: Sharof Rashidovning hayoti va ijodiy faoliyati. Ifodali o‘qish: Kashmir qo‘shig‘i dostonidan parcha	1		
14.	Kasbim – faxrim. Grammatika: Matnning turlari. Diologik matn. Ish qog‘ozlari: Tushuntirish xati	1		
15.	Kasbim – faxrim. Grammatika: Matnning turlari. Diologik matn. Ish qog‘ozlari: Tushuntirish xati	1		
16.	Adabiy o‘qish: Halima Xudoyberdiyeva hayoti va ijodiy faoliyati	1		
17.	Loyiha ishi taqdimoti	1		
18.	Xalq amaliy san‘ati. Grammatika: Monologik matn. Ish qog‘ozlari: Xat	1		
19.	Xalq amaliy san‘ati. Grammatika: Monologik matn. Ish qog‘ozlari: Xat	1		
20.	Adabiy o‘qish: Abdulhamid Cho‘lponning hayoti va ijodiy faoliyati. Ko‘ngil she‘ri	1		

21.	Teatr va kino. Grammatika: Matnni qisqartirish va kengaytirish. Ish qog'ozlari: Taklifnoma	1		
22.	Teatr va kino. Grammatika: Matnni qisqartirish va kengaytirish. Ish qog'ozlari: Taklifnoma	1		
23.	Adabiy o'qish: Said Ahmadning hayoti va ijodiy faoliyati, hikoyalari	1		
24.	Milliy madaniy markazlar. Grammatika: Iboralar. Ish qog'ozlari: Tavsifnoma	1		
25.	Adabiy o'qish: Odil Yoqubovning hayoti va ijodiy faoliyati. "Muzqaymoq" hikoyasi	1		
26.	Nazorat ishi-2	1		
27.	Mustahkamlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O‘zbekiston – suveren davlat. Grammatika: O‘tilganlarni takrorlash. (Loyiha ishi mavzusini baholash va e‘lon qilish)

Maqsadlar:

a) ta‘limiy: o‘zbek tilida egallagan bilimlarini og‘zaki va yozma nutqda mustaqil qo‘llashga o‘rgatish, o‘zbek tilidan ijtimoiy vaziyatlarda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali mustaqil ishlay olish qobiliyatini shakllantirish.

b) tarbiyaviy: og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini o‘stirish, yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida ma‘lumot berish.

d) rivojlantiruvchi: vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiborli bo‘lish, badiiy va san‘at asarlarini tushunish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilishga o‘rgatish.

Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og‘zaki nutq: atrofdegilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini aytadi.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o‘quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni:

O‘ZBEKISTON – KELAJAKDA

O‘zbekiston 130 dan ortiq millat va elat yashaydigan ko‘p millatli davlat hisoblanadi. Yurtimiz mustaqillik davrida ko‘plab sohalarda yutuqlarga erishib kelmoqda. O‘zbekiston bu vaqt davomida mustaqil davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi ko‘plab xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘ldi. Hozirgacha 140 qa yaqin davlat bilan diplomatik aloqalar o‘rnatib, jahonda o‘zining ochiq siyosati bilan e‘tibor qozonib kelmoqda. [A].



O‘zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlar ichida yerosti va usti boyliklariga va kattagina mehnat kuchiga ega davlatlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda yurtimizda neft va gaz sanoati, elektroenergetika, kimyo sanoati, metallurgiya sanoati, avtomobilsozlik, agrosanoat va chorvachilik klasterlarini yaratish kabi sanoat sohasiga davlat siyosati darajasida e‘tibor berilmoqda. Masalan, umumiy qiymati 4 mlrd dollardan oshadigan Ustyurt gaz-kimyo majmuasining qurilishi, umumiy qiymati 10 mlrd dollardan ortiq baholanayotgan Atom elektr stansiyasi (AES) qurilishining boshlanishi O‘zbekiston energetika va sanoatda katta marralarni ko‘zlayotganligidan dalolatdir. Bundan tashqari, yurtimizda kichik biznes rivojlanib, O‘zbekiston mahsulotlari jahon bozorlariga kirib bormoqda. Ayniqsa, trikotaj mahsulotlari xaridorgirliigi va sifati bilan jahon bozorlarida o‘z o‘rnini egallamoqda. [B]

O‘zbekistonda ta‘lim, sport, madaniyat sohaslariga ham katta e‘tibor berilmoqda. Ko‘plab sport inshootlari, ta‘lim muassasalari va madaniyat maskanlari qurilib, foydalanishga



topshirilmoqda. Yoshlarning malakali va yetuk mutaxassis bo'lishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Fikrimizning yorqin misoli sifatida shuni aytishimiz mumkin, kelajakning "oltin bosh"larini tarbiyalash maqsadida respublika bo'ylab Prezident maktablari ochilmoqda. Bu maktablarda o'z sohasi bo'yicha jahonning yetuk mutaxassislari, pedagoglari yurtimiz farzandlariga ta'lim-tarbiya berishmoqda. Bundan

tashqari, malakali kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Hozirgi kunga kelib yurtimizda 90 ga yaqin mahalliy oliy ta'lim muassasalari va 20 dan ortiq xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari o'z faoliyatini olib bormoqda. Ularda kreativ fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas mutaxassislar tayyorlanmoqda. Shu bilan birga, keyingi yillarda jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi tashkil etildi. Bu jamg'arma ko'magida ko'plab yoshlarimiz jahonning nufuzli ta'lim muassasalarida malakasini oshirib, tahsil olib qayt moqdalar. Shular bilan bir qatorda, ta'kidlashimiz lozimki, respublikamizning barcha yirik shaharlarida IT parklarining ochilayotganligi yoshlarimizning zamon bilan hamnafas bo'lishiga zamin yaratadi. [D]

Men ham shu yurt farzandi sifatida ishonamanki, yaqin kelajakda olimlarimiz, adiblarimiz ham eng nufuzli xalqaro mukofotlar sohibi bo'lishadi, sportchilarimiz xalqaro musobaqalardan shoda-shoda medallar bilan yurtga qaytishadi, jahon kuboklarini boshlari uzra ko'tarishadi. Osiyo o'yinlari, olimpiada o'yinlari, jahon chempionatlari bizning Vatanimizda ham o'tkaziladi. Dunyo xalqlari bizni ko'rganda: "O'zbekistonliklardan ko'ra mehmon do'st va ahil xalq hech yerda yo'q!" degan bahoni berishadi. [E]



Yuqorida berilgan matnning xatboshilari [A, B, D va E] nima haqida ekanligini aniqlang va belgilang.

1. O'zbekiston aholisining etnik tarkibi. A
2. Kelajakdagi O'zbekiston. _____
3. Asosiy maqsadimiz – yosh avlodni yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash. _____
4. O'zbekistonda ishlab chiqarish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar. _____
5. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari. _____

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. O'zbekiston qaysi tashkilotlarga a'zo bo'lgan?
2. O'zbekistonning tashqi siyosati haqida bilganlaringizni gapiring.
3. O'zbekistonda yana qanday yirik korxonalarni bilasiz?
4. Siz O'zbekistonni kelajakda qanday tasavvur qilasiz?
5. Siz Vataningiz uchun nimalar qilyapsiz va kelajakda nimalar qil moqchi siz?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: So‘z birikmasi va gap

Maqsadlar:

a) ta’limiy: o‘zbek tilida egallagan bilimlarini og‘zaki va yozma nutqda mustaqil qo‘llashga o‘rgatish, o‘zbek tilidan ijtimoiy vaziyatlarda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali mustaqil ishlay olish qobiliyatini shakillantirish.

b) tarbiyaviy: og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini o‘stirish, yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida ma’lumot berish.

d) rivojlantiruvchi: vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiborli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilishga o‘rgatish.

Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og‘zaki nutq: atrofdegilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o‘quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:

BILIB OLING! Bir xil so‘roqqa javob bo‘lib, bir xil vazifada keladigan so‘zlarga **uyushiq bo‘laklar** deyiladi. Uyushiq bo‘laklar bir-biridan **vergul** yoki **teng bog‘lovchilar** bilan ajratiladi. Gapning barcha bo‘laklari uyushib kelishi mumkin. Masalan: **Tohir, Gulnoza va men (kim?) kutubxonaga bordik (ega).**

*Biz **a’lochimiz** va **jamoatchimiz** (kesim).*

*Uning so‘zlariga **goh kulib, goh jiddiy quloq** solardi (hol). Bog‘da nafis **gullarning, xushbo‘y giyohlarning** hidlari ufuradi (aniqlovchi).*

*Men **onamga, otamga va opamga** sovg‘a oldim (to‘ldiruvchi).*

Matn asosida tuzilgan gaplarda tushirib qol dirilgan uyushiq bo‘laklarni tiklang.

1. O‘zbekiston ..., ..., ... ega bo‘lgan dav lat lardan biri hisoblanadi.
2. O‘zbekiston va ... katta marralarni ko‘zlamoqda.
3. Yurtimizda ko‘plab ... , ... va ... qurilib, foydalanishga topshirilmoqda.
4. Bizning Vatanimizda ham o‘tkaziladi.
5. Dunyoda o‘zbekistonliklardan ko‘ra va xalq hech yerda yo‘q!

Qavsda berilgan soʻz va birikmalar yordamida gaplar uzing va uyushiq boʻlaklarning tagiga chizing.

1.(bilimdon/ aqlli/ mehnatsevar/ yoshlar/ yurt/ kelajak/ hisoblanmoq)

2. (bogʻimizdagi/ oʻriklar/ olmalar/ shaftolilar/ gulga kirmoq)

3.(sadoqat/ doʻstlik/ vafodorlik/ kabi/ tuygʻular/ doim/ qadr topmoq)

4.(biz/ Samarqand/ Buxoro/ va/ Xiva/ sayohat qilmoq/ uchun/ bormoq)

5.(tadbirkorlar/ ishbilarmonlar/ uchun/ koʻplab/ yengilliklar berilmoq)

Suhbatni oʻqing va doʻstlaringiz bilan davom ettiring.

Temur: Salom, Sanjar! Yaxshimisan, taʼtilni yaxshi oʻtkazdingmi?

Sanjar: Salom, Temur! Rahmat, yaxshiman. Bu yil taʼtilni zoʻr oʻtkazdim. Oʻzing yaxshimisan?

Temur: Ha, yaxshiman. Nimalar bilan band boʻlding, nimalar qilding?

Sanjar:Yoz boʻyi toʻgaraklarga qatnadim, taʼtilning oxirgi ikki haftasida Dubayga dam olgani borib keldik.

Temur: O, zoʻr-ku! Qanday joylar ekan!

Sanjar: Dengiz boʻyi chiroyli, havosi toza, jannatmisol joylar ekan. Shaharni aytmaysanmi? Koʻp qavatli binolar shunaqangi koʻpki, koʻrib hayratlanasan. Dunyodagi eng baland inshoot – “Burj xalifa”ga ham chiqdik. Atrof juda hayratlanarli koʻrinarkan.

Temur: Ha, rostdan zoʻr dam olibsan!

Sanjar: Bizda ham shunaqa shaharlar, inshootlar qurilar ekanmi? A?

Temur:Albatta, bizning yurtda ham “Toshkent city” qurilyapti. Yaqin kelajakda yanada goʻzal shaharchalar, baland binolar, inshootlar bunyod etiladi.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:

Gap nimalardan tashkil topadi?

V.Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbat kartochkalari bilan ragʻbatlantiriladi.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: “Oʻzbekiston – kelajakda”mavzusida matn tuzing.

OʻIBDOʻ: _____

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

**55 listdan iborat o‘zbek tili fanidan
11-sinf I chorak konspektini to‘loq holda olish
uchun telegramdan yozing.**



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**